PEDAGOGIKA

UDK: 821751 **DOI:** 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a11

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ROMANCHILIGI: BADIIY VA ILMIY TAFAKKUR MASALALARI

УЗБЕКСКАЯ РОМАНИСТИКА ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ: ВОПРОСЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО И НАУЧНОГО МЫШЛЕНИЯ

UZBEK ROMANCE STUDIES IN THE INDEPENDENCE PERIOD: ISSUES OF ARTISTIC AND SCIENTIFIC THINKING

Pardaeva Zulfiya Jo‘rayevna[1]

[1]**Pardaeva Zulfiya Jo‘rayevna** – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi yutuqlari va ularga bag‘ishlangan tadqiqotlar xususida so‘z yuritiladi. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligining birinchi bosqichi -1990 – 2000-yillarda yaratilgan Omon Muxtorning hajman mo‘jaz romanlari, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, Murod Muxammad Do‘stning “Lolazor”, Xurshid Do‘stmuxammadning “Bozor”, Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li”, Ulug‘bek Xamdamning “Muvozanat”, To‘xtamurod Rustamning “Kapalaklar o‘yini” va ikkinchi bosqichida - 2000 - yillardan hozirgi davrgacha yaratilgan Naim Karimovning «Чo‘lpon», Xurshid Do‘stmuxammadning “Donishmand Sizif”, Asad Dilmurodning «Fano dashtidagi kush», Isajon Sultonning«Ozod», Erkin Samandarning «Tangri kudugi» kabi romanlar qiyosiy tahlil etilgan. X.Do‘stmuhammadning «Bozor» romani tafakkurida jamiyat badiiy-estetik tafakkuri badiiy talqin etilgan bo‘lsa, “Donishmand Sizif” romfnida qadimgi yunon mifi va fransuz yozuvchisi Alber Kamyuning “Sizif haqida mif”i asarining reprezentatsiyasi amalga oshirilgan. “Donishmand Sizif” romani o‘zbek romanini ham shaklan, ham usluban yangilagan asardir.

Mustaqillik davrida o‘zbek romannavislari tomonidan yaratilgan romanlar talqin va tahlil etilgan Zulfiya Pardaeva, Yo‘ldoshxo‘ja Solijonov, Shoira Doniyorova, Islomjon Yakubov, Mubora Omonovalar amalga oshirgan tadqiqotlar va ularda ko‘rilgan masalalarga ham alohida to‘xtalgan, munosabat bildirilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются достижения узбекской романистики и посвященные им исследования. В сравнительном аспекте рассмотрены такие романы, как романы узбекской романистики первого периода – 1990-2000 годов минироманы Амана Мухтара, Тагая Мурада “Поля, оставленные отцом”, Мурада Мухаммада Дуста “Тюльпанник”, Хуршида Достмухаммада “Базар”, Назара Эшанкула “Гёрогли”, Улугбека Хамдама “Равновесие”, Тухтамурода Рустама “Игра бабочек”, второго периода – с 2000 годов по настоящему времени Наима Каримова “Чулпан”, Хуршида Достмухаммада “Мудрый Сизиф”, Асада Дилмурада “Птица на бренном степи”, Исажона Султана “Озод”, Эркина Самандара “Божий колодец”.Если в романе Хуршида Достмухаммада “Базар” воплощено художественно-эстетическое мышление общества, то в романе “Мудрый Сизиф” репрезентирован древнегреческий миф О Сизифе и произведение Альбера Камю “Миф о Сизифе”. Роман “Мудрый Сизиф” обновил узбекский роман в жанрово-стилевом отношении.

Особо отмечены исследования, посвященные анализу и интерпретации узбекских романов Зульфии Пардаевой, Юлдашхужи Салижанова, Шоиры Данияровой, Исламжана Якубова, Муборы Амановой.

Abstract

This article talks about the achievements of Uzbek novelists in the period of independence and the researches devoted to them. The first stage of Uzbek novels in the period of independence - 1990 - 2000, the magnificent novels of Amon Mukhtar, "Fields left by my father" by Togai Murad, "Lolazor" by Murad Mukhammed Dost, "Bazar" by Khurshid Dostmukhammed, Nazar Eshanqul's "Go‘roghli", Ulug‘bek Khamdam's "Equilibrium", Tokhtamurod Rustam's "Butterfly Game" and in the second stage - Naim Karimov's "Cholpon", , created from the 2000s until now Novels such as "The Wise Sisyphus" by Khurshid Dostmukhammad, "Bird in the Fano steppe" by Asad Dilmurod, "Free" by Isajon Sultan, and "God's Well" by Erkin Samandar are comparatively analyzed. Kh.Dostmukhammad's novels "Bazar" and "The Wise Sisyphus" are artistically interpreted in the novel thinking and represent the artistic and aesthetic thinking of the society, as well as the representation of the ancient Greek myth and the French writer Albert Camus's "Myth of Sisyphus".

In the period of independence, the novels were created interpreted and analyzed by Uzbek novelists, such as Zulfiya Pardaeva, Yoldoshkhoja Solizhanov, Shoira Doniyorova, Islamjon Yakubov, Mubora Omonova, and the issues raised in them were also discussed.

Kalit so‘zlar: *roman, romannavis, uslub, metod, poetika, adabiyotshunoslik, tadqiqot, badiiy-estetik tafakkur, ilmiy tafakkur.*

Ключевые слова: *роман, романист, стиль, метод, поэтика, литературоведение, художественно-эстетическое мышление, научное мышление.*

Key words: *novel, novelist, style, method, poetics, literary studies, research, artistic-aesthetic thinking, scientific thinking.*

KIRISH

Mustaqillik yillarida respublikamizning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar, tabiiy-ki badiiy adabiyot sohasida ham o‘z aksini topmoqda. Mamlakatimizning taraqqiy etgan davlatlar hamjamiyatiga qo‘shilishi muloqot imkoniyatlarini kengaytirdi, tillarga bo‘lgan etibor badiiy asarlarni asliyatda o‘qishga, asliyatdan o‘zbek tiliga o‘girishga olib keldi, yetuk adiblar qo‘llagan uslublar o‘zbek yozuvchilari uchun badiiy mahorat maktabini o‘tayotgan bo‘lsa, jahon adabiyotshunosligida qo‘llanilayotgan ilg‘or tahlil metodlarini o‘zlashtirish adabiyot sohasida olib boriladigan tadqiqotlarni ham faollashtirdi, ilm-fan yo‘nalishlarini boyitdi.

O‘zining uch asrdan ziyodroq taraqqiyot tarixida roman janr sifatida o‘zining yashovchanligini, mukammaligini, inson va jamiyat bilan chambarchas bog‘liqligini namoyon etayotgan bo‘lsa, XX asrda A.Qodiriy asos solgan o‘zbek romanchiligi ham dunyo romanchiligi bilan bahslasha oladigan baquvvat asarlar solnomasini yaratmoqda.

Roman epik janr sifatida jamiyat badiiy-estetik tafakkuri inikosi sifatida yuzaga kelar ekan, unda inson va jamiyatga xos taraqqiyot va tanazzul sabab va oqibatlari badiiy talqin etilishi tabiiy (biz bunda badiiy baquvvat romanlarni nazarda tutyapmiz). Etirof etish kerak, o‘zbek romanchiligi va romanshunosligi bir-biriga monand rivojlandi. Milliy istiqlolning birinchi yillarida o‘zbek romanchiligida kechgan sokinlikni ijodkor ongida kechgan kurashlar silsilasi davri desak adashmaymiz. Qalbda, ruhda kechgan hayrat va shukronalik ongda aks-sado berar ekan, yozuvchining o‘y-xayolini band etgan g‘oya talqini uchun yillar kerak bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi tadrijini badiiy va ilmiy tafakkur masalalariga ko‘ra talqin va tahlil qilishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va struktural-semantik tadqiq usullari qo‘llanildi.

Mustaqillik davri uch o‘n yillik o‘zbek romanchiligi tom manoda poetik yangilanish jarayonida yuksalmoqda, desak adashmaymiz. Biz ushbu davr romanchiligini ikki bosqichda o‘rganishni taklif qilamiz. Birinchi bosqich – 1990-2000-yillar, ikkinchi bosqich – 2000-yillardan hozirgi davrgacha.

Birinchi bosqichda yaratilgan Omon Muxtorning hajman mo‘jaz romanlari, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, Murod Muxammad Do‘stning “Lolazor”, Xurshid Do‘stmuxammadning “Bozor”, Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li”, Ulug‘bek Xamdamning “Muvozanat” kabi romanlarni yangilanish davrining badiiy baquvvat romanlari desak mubolag‘a bo‘lmaydi. [4; 5; 10; 11]

Ikkinchi bosqichda yaratilgan Naim Karimovning «Чo‘lpon», Xurshid Do‘stmuxammadning “Donishmand Sizif”, Asad Dilmurodning «Fano dashtidagi kush», Salomat Vafoning «Tilsim saltanati», «Ovoraning ko‘rgan kechirganlari», Isajon Sultonning «Ozod», Erkin Samandarning «Tangri kudugi» [14, 15] romanlari poetikasi jahonga yuzlashgan o‘zbek romanchiligining yutug‘i sifatida turli janr va uslublarda mozaika singari turfa xil rang-barang shakllarni tuhfa etdi. Etiborga molik jihati, bu romanlar chop etilishi bilan o‘z kitobxonini ham, o‘z munaqqidini ham, o‘z tadqiqotchisini ham topdi.

Mustaqillik davri romanchiligimizda ravnaq topayotgan ananaviy romanlar qatorida, noananaviy romanlar ham taraqqiyot sari yuzlangan ekan, yozuvchilarimiz yillar davomida tazyiq ostida yashagan ong ozod bo‘lishi, o‘z individual uslublariga ega bo‘lish bilan birga, har bir roman ham individual bo‘lishini anglab yetdilar. Roman hech bir qolipga, andozaga tushmasligi noananaviy romanlar misolida ham ochib berilar ekan, tub islohotlar tasirida yangilanayotgan zamonda yangicha ruh, yangicha tafakkur hosilasi o‘laroq, yangi-yangi romanlar yaratilishi tabiiydir. Negaki, har bir davr o‘z talab va ehtiyojiga ko‘ra jamiyatda badiiy-estetik tafakkurni shakllantiradi. Xuddi shu o‘rinda X.Do‘stmuhammadning «Bozor» romani yangi shakllanib kelayotgan roman tafakkurida badiiy talqin etilgan jamiyat badiiy-estetik tafakkuri inikosi hamdir.

Mustaqillik davri romanlari tahlili jarayonida O.Muxtor, X.Do‘stmuhammad, T.Rustamning ijodlarida noananaviy roman poetikasi turlicha shakllanar ekan, har bir yozuvchi qo‘llagan uslub individual bo‘lishi bilan birga har bir roman ham o‘ziga xos poetik tizimni namoyon etadi. Romanlarning konseptual g‘oyasini ochib berishda asosan retrospektiv va assotsiativ syujetlar qo‘llangan bo‘lib qahramonlarning botiniy olamini, qalb kechinmalarini badiiy talqin etishda ularning keng imkoniyatlari namoyon bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek romanlarida noananaviy talqin uslublarining qo‘llanilishi o‘zbek romani poetikasining badiiy yangilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Etirof etish kerak, noananaviy talqin yo‘llarining shakllanishida nafaqat g‘arb modern romanlarining, balki mumtoz o‘zbek adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi ananalarining ham tasiri etiborga molik. O.Muxtorning «Ko‘zgu oldidagi odam»,

«Aflotun», X.Do‘stmuhammadning «Bozor» romanlarida falsafiy mushohada, «Ming bir qiyofa», «Tepalikdagi xaroba»da psixologik tahlil, T.Rustamning «Kapalaklar o‘yini»da absurd g‘oya bugungi kun misolida ochib berilishi romanchiligimizda noananaviy uslublarning yuzaga kelishida aslida biz yashayotgan voqelik ham alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Romanchiligimizda noananaviy romanlarning yuzaga kelishining eng muhim omili janrning tadrijiy taraqqiyot talabi bo‘lib, janrga xos yangilanish, isloh qilish, tarixiy poetika komponentlarini namoyon etish o‘zbek romaniga ham xos xususiyatdir. Bu nafaqat o‘zbek romani dinamikasini, umuman, roman janrining tadrijini ifodalaydi.

Poetika tahlilida nafaqat umumestetik qoidalari bilan birga manbaning o‘ziga ham etibor berish kerakligini, lingvistika so‘z san’atining yuzaga kelishida yordamchi soha ekanligini takidlagan rus adabiyotshunosi M.Baxtin sanat mohiyatini, uning falsafiy-estetik komponentlari dinamikasini dialektik qonuniyat asosida asoslab beradi. Nazariy asoslangan poetika tahlili «estetik tahlil manbai» sifatida talqin etiladi va estetik tahlilning uch uslubiy vazifasi asoslab beriladi:

Birinchidan, estetik manbaning sof badiiy o‘ziga xosligi va tuzilishini anglamoq; M.Baxtin bu tushunchani estetik manba arxitektonikasi deb yuritadi;

Ikkinchidan, estetik tahlil asarning yaratilish negiziga, uning tuzilishi estetik manbaga qaram bo‘lmagan holda tahlil jarayoni amalga oshirilmog‘i lozim. Bunda ijodkor sanat asarini yaratishda qanday sohalar bo‘yicha mukammal bilimini namoyon qilgan bo‘lsa, tadqiqotchi ham bu bilimlarni shunday mukammal bilmog‘i va tahlil etmog‘i lozim, yani u ham geometrik, fizik, anatom, fiziolog, lingvist bo‘lmog‘i kerak;

Uchinchidan, estetik tahlilning vazifasi asar manbasini estetik tahlilini oshirishning texnik apparati deb anglamoq lozim. [1, 49]

Hozirgi davr romanchiligida kechayotgan badiiy evrilishlar adabiy jarayonning birmuncha faollashganidan darak berish barobarida, roman poetikasiga ham tasir qilmay qolmaydi. Romanchilik va uning tegrasida kechayotgan bahs-munozaralar, ilmiy tadqiqotlar tahlili taraqqiy etgan jamiyatlarda bo‘lgani kabi bizning jamiyatimizning ham badiiy-estetik tafakkuri darajasini aynan roman inkishof etishi, bugungi muttasil o‘zgarib borayotgan adabiy jarayonda roman taqdiri yozuvchilarimiz uchun ham, adabiyotshunoslarimiz uchun ham eng muhim muammo bo‘lib qola berishini ko‘rsatadi. «Janr o‘z davriga va o‘z yozuvchisiga monand bo‘ladi: o‘zi mansub davrni nafaqat tasvirlaydi, balki unga aniqlik ham kiritadi», - deb yozadi adabiyotshunos N.Dulova. [7, 5] Demak, Mustaqillik davri romanchiligi nafaqat o‘zi mansub davrni tasvirlaydi, balki davrga xos jamiyat badiiy-estetik tafakkur roman tafakkuri sifatida shakllanadi. Turli-tuman o‘zgarishlar, global muammolar, tabiiy ofatlar, siyosiy ziddiyatlar, qirg‘inbarot urushlar inson ongida yuz berayotgan o‘zlikni anglash yo‘lidagi silsilalar qahramon «men»i bo‘lib roman tiliga ko‘char ekan, kuz havosiga o‘xshash o‘zgaruvchan inson tabiatini tasvirlash ananaviy romanlar poetikasi ramkasiga sig‘maydi, shu sababdan ham yozuvchilar murakkab tizimli roman poetikasiga murojaat etadilar. Bu jarayon, ayniqsa, XX asrning eng oxirgi o‘n yilligida birmuncha izchillashgan bo‘lsa, XXI asrning birinchi choragida ayniqsa faollashdi. Bunday murakkab tizimli poetikani zohir qilgan romanlarni talqin va tahlil etishda integratsion tahlil metodlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa tizimli sinergetik tahlil metodlarini qo‘llash romanni kulturologik jihatdan fanlararo munosabatda tadqiq etish adabiyotshunoslik imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Mustaqillik davri o‘zbek romanlari shaklan yangilanib qolmay, ularda tafakkur mantiqi mohiyatan o‘zgarmoqda, poetika tuzilishi yangilanmoqda, umuminsoniy qadriyatlar milliylikdan kelib chiqib talqin etilmoqda. Milliy istiqlol davrining birinchi o‘n yilligida O.Muxtor, X.Do‘stmuhammad, T.Rustam ijodida bo‘y ko‘rsatgan yangicha badiiy usul va uslublar o‘zbek romani poetikasiga ijobiy tasir qilmay qolmaydi.

Bir-birini takrorlamaydigan, mavzu jihatidan ham, poetikaga nisbatan ham O.Muxtor romanlari yozuvchining badiiy tadqiqotlariga o‘xshaydi. Mudom ijodiy izlanishda bo‘lgan yozuvchi usluban nimanidir kashf etadi. Chuqurroq mushohada yuritilsa, bizga notabiiy tuyulgan ifoda, mavzu, hatto uslub orqali o‘zimiz, o‘zligimiz, Sharq tafakkuri badiiy inkishof etilganini anglaymiz. Voqelikning xuddi shunday inson va koinot, inson va jamiyat nuqtai nazaridan «notabiiy» badiiy tasvir vositalari orqali badiiy ifodalanishi o‘zbek romanchiligi tasnifida noananaviy romanlar tamoyilini ochib berdi, desak, adashmaymiz. O‘zbek romanchiligida noananaviy roman janrining shakllanishida yozuvchi Omon Muxtorning o‘z o‘rni bor.

Davr o‘tmoqda, zamon o‘zgarmoqda, demak, odamlar ongi ham o‘zgarmoqda. Kechagina shov-shuvlarga sabab bo‘lgan asar bugun o‘quvchini qoniqtirmasligi mumkin. Bu bilan biz aslo vaqt o‘tishi bilan har qanday asar eskiradi, istemoldan chiqadi, demoqchi emasmiz. Aksincha, badiiy

asarning haqiqiy qiymatini bazan vaqt masofasi ham belgilaydi. Roman tafakkuri taklif etgan falsafiy bahsga o‘quvchi tayyor bo‘lmagan aksar hollarda shunday jarayon kechishini Marsel Prust, Jeyms Joys, Frans Kafka, Natali Sarrot, Jon Apdayk, Paulo Koelo, Gabrieль Markes romanlarining taqdiridan ham anglash mumkin.

Omon Muxtor romanlari tadrijini tahlil etar ekanmiz, «Maydon» va «Aflotun» romanlari talqin uslubi, voqelik talqini yechimi bilan bir-biridan farq qilsa-da, talqinga jalb etilgan manba va muammoni roman g‘oyasiga singdirib yuborilishi jihatidan o‘zaro mushtarak. «Maydon» romani mutolaasi jarayonidayoq jahon adabiyoti durdonalari bo‘lmish «Asrga tatigulik kun», «O‘n bir negr bolasi» romanlariga xos badiiy komponentlar «Maydon»ga ham xos ekanligini anglaymiz. Shuningdek, «Uch musulmon va bir qiz» haqidagi hikoyat zamiridagi mohiyatni «Maydon»da uqqandek bo‘lamiz.

«Ming bir qiyofa», «Ko‘zgu oldidagi odam», «Tepalikdagi xaroba» romanlari ruhiga singdirib yuborilgan, og‘ziga qulf solinishiga toqat qilolmay, bu kunimdan o‘lganim yaxshi deb o‘zini dorga osishlarini so‘rab, maydonga arqon ko‘tarib kelgan odam haqidagi rivoyat ushbu trilogiya g‘oyasi ramzi, desak ham bo‘ladi. [6; 12; 13]

O.Muxtorning shartli-ramziy badiiy talqin yo‘lida yaratilgan noananaviy romanlari milliy istiqlol davri romanchiligimizda shakllanayotgan va yangilanayotgan o‘zbek romani janriga ijobiy tasir ko‘rsatar ekan, zamon bilan hamnafas roman janr talabidan kelib chiqib, o‘zbek romanchiligida noananaviy roman janri shakllanishini romanchiligimiz yo‘lidagi ijobiy hodisa deb baholaymiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mustaqillik davri romanchiligimizda ravnaq topayotgan ananaviy romanlar qatorida, noananaviy romanlar ham taraqqiyot sari yuzlangan ekan, yozuvchilarimiz yillar davomida tazyiq ostida yashagan ong ozod bo‘lishi, o‘z individual uslublariga ega bo‘lish bilan birga, har bir roman ham individual bo‘lishini anglab yetdilar. Roman hech bir qolipga, andozaga tushmasligi noananaviy romanlar misolida ham ochib berilar ekan, tub islohotlar tasirida yangilanayotgan zamonda yangicha ruh, yangicha tafakkur hosilasi o‘laroq, yangi-yangi romanlar yaratilishi tabiiydir. Negaki, har bir davr o‘z talab va ehtiyojiga ko‘ra jamiyatda badiiy-estetik tafakkurni shakllantiradi. Xuddi shu o‘rinda X.Do‘stmuhammadning «Bozor» romani yangi shakllanib kelayotgan roman tafakkurida badiiy talqin etilgan jamiyat badiiy-estetik tafakkuri inikosi bo‘lgan bo‘lsa, yozuvchining “Donishmand Sizif” romaniga xos umuminsiniy falsafiy mushohada qadimgi yunon mifi reprezentatsiyasi orqali ochib beriladi.

T.Rustamning «Kapalaklar o‘yini» romanini tahlil etar ekanmiz, absurd romanning talqin manbai absurd hayot ekanligini anglaymiz. Badal Armonning xotiralari, ularning tahlili bayonida har safar muqarrar bir fojia tafsiri kelib chiqadi. Go‘yo kimsasiz, so‘rovchisi yo‘q Badalning «g‘arbona» hayot kechirishi-yu, o‘zbek qizlarining «tungi kapalaklar»ga aylanishi zamirida achchiq haqiqat yotadi. Har bir voqea xulosasi qahramonda absurd tuyg‘u uyg‘otadi. Hayot haqidagi falsafiy mushohadalarni ko‘povozlilik psixologik tahlil meyoriga yetkazadi. Romanning g‘oyaviy-badiiy mazmuni qahramon mansub absurd hayot inikosi sifatida namoyon bo‘lganini, Badal Armon esa absurd qahramon sifatida shakllanganini, absurd esa har qanday davrda, har qanday holatda manisizlikdan mano izlash ekanligini ochib berishga xizmat qiladi. [12]

Shu bilan birga, «Kapalaklar o‘yini» poetikasida birmuncha mavhumliklar mavjud. Romanda mantiqiy tahlil bazan «modern» yo‘nalishiga taassub bilan almashinadi. Nokerak takrorlar roman mohiyatiga faqat salbiy tasir ko‘rsatadi, xolos. Modern talqin uslubiga xos «bir badiiy nafas olishlik» abzaslarda yozuvchi «nafasi» yetmayotgani, abzas davomiyligi zo‘raki bo‘layotgani seziladi.

«Kapalaklar o‘yini» romanining ahamiyati shundaki, aynan shu roman orqali o‘zbek romanchiligi noananaviy janr yo‘nalishida yaratilgan modern talqin uslubidagi absurd roman tamoyiliga birmuncha yaqinlashgan. Bu esa, tabiiyki, roman janri taraqqiyotidagi rang-baranglilikni taminlaydi.

Mustaqillik davri romanlari tahlili jarayonida O.Muxtor, X.Do‘stmuhammad, T.Rustamning ijodlarida noananaviy roman poetikasi turlicha shakllanar ekan, har bir yozuvchi qo‘llagan uslub individual bo‘lishi bilan birga har bir roman ham o‘ziga xos poetik tizimni namoyon etadi. Romanlarning konseptual g‘oyasini ochib berishda asosan retrospektiv va assotsiativ syujetlar qo‘llangan bo‘lib qahramonlarning botiniy olamini, qalb kechinmalarini badiiy talqin etishda ularning keng imkoniyatlari namoyon bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek romanlarida turli xil talqin uslublarining qo‘llanilishi o‘zbek romani poetikasining badiiy yangilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Etirof etish kerak, noananaviy talqin yo‘llarining

shakllanishida nafaqat g‘arb modern romanlarining, balki mumtoz o‘zbek adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi an’analarining ham tasiri etiborga molik. O.Muxtorning «Ko‘zgu oldidagi odam», «Aflotun», X.Do‘stmuhammadning «Bozor», kabi romanlarda falsafiy mushohada, «Ming bir qiyofa», «Tepalikdagi xaroba»da psixologik tahlil, T.Rustamning «Kapalaklar o‘yini»da absurd g‘oya zamonga monand vaqt va makon mohiyatidan kelib chiqib ochib berilishi romanchiligimizda yangi uslublarning yuzaga kelishida biz yashayotgan voqelik ham alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi. [12; 13]

Romanchiligimizda yangi uslubdagi romanlarning yuzaga kelishining eng muhim omili janrning tadrijiy taraqqiyot talabi bo‘lib, janrga xos yangilanish, isloh qilish, tarixiy poetika komponentlarini namoyon etish o‘zbek romaniga ham xos xususiyatdir. Bu nafaqat o‘zbek romani dinamikasini, umuman, roman janrining tadrijini ham ifodalaydi.

Mustaqillik davri o‘zbek romanlariga xos yana bir badiiy xususiyat – mifopoetik romanlarning yaratilishi. Bu turkumga o‘zbek prozasining jiddiy yutuqlaridan sanalgan Sh.Bo‘tayevning “Shox”, “Yettinchi tong”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, “Donishmand Sizif”, N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li”, U.Hamdamning “Isyon itoat”, I.Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlari mansubdir. [19]

Ko‘rsatib o‘tish joiz, o‘zbek adabiyotshunosligida mifopoetika masalalari adabiyotshunoslar N.Vladimirova, G.Garipova, S.Kamolova, N.Sizdiqboyev, M.Qo‘chqorovalar tomonidan tadqiq etilgan, yuqorida zikr etilgan romanlar bo‘yicha ham turli xil nuqtai nazardan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. J.Bo‘ronovaning “Zamonaviy rusiyzabon va o‘zbek nasrida badiiy mifologizm” [2] mavzuidagi falsafa doktori dissertatsiyasi qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishida bajarilgan bo‘lib, rusiyzabon va o‘zbek nasrida mifopoetika masalalari aks etgan Temur Po‘latovning «Mulk», «Taroziy toshbaqasi», Hamid Ismoilning «Mbobo», Omon Muxtorning «To‘rt tomon qibla» va Xurshid Do‘stmuhammadning «Donishmand Sizif» kabi qissa va romanlari qiyosiy tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotni bajarishda tadqiqotchi qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va struktural-semantik tadqiq usullarini qo‘llagan.

Ushbu davrda yaratilgan mifopoetik romanlardan Xurshid Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif” [8, 249-359] to‘liq reprezentatsiyasi bilan farq qiladi. Yozuvchi Sizif haqidagi qadimgi mifga murojaat qilib, o‘zining yangilangan (neomifologizm) mifini yaratadi, talqin jarayonida ko‘plab o‘zbek maqollari va iboralarni qo‘llaydi, Sizif obrazi, go‘yo-ki insonning dardlari, o‘y-kechinmalari va tashvishlarining ramziy talqini sifatida tasvirlanadi.

Roman jamiyat badiiy-estetik tafakkuri inikosi ekan, kundan kunga o‘z murakkabliklarini namoyon etayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ruhan, manan va moddiy jihatdan sinib qolmaslik uchun evrilayotgan inson bor dardu tashvishi, shodligu g‘ami bilan real voqelik inikosi sifatida uning badiiy talqin obyektiga aylanishi tabiiy. [13, 54] X.Do‘stmuhammad qalamiga mansub «Bozor» romanining badiiy yutug‘i ham unda aynan real voqelik badiiy modelining yaratilganligidir. Yozuvchining “Donishmand Sizif” falsafiy romanida esa Sizif obrazi reprezentatsiyasini amalga oshirishda yozuvchi postmodernizm uslublarini badiiy mahorat bilan amalga oshiradi. To‘g‘ri, roman poetikasida g‘arb «ong» oqimi usul va uslublari seziladi, ammo asar talqin manbai va talqin uslubi o‘rtasida tafakkur mantiqi mavjud bo‘lib, romanga sharqona tafakkur talqini olib kirilgan, qo‘llanilgan barcha uslublar mantiqan bir-birini to‘ldiradi, yunon mifi, fransuz yozuvchisining essesi o‘zbek yozuvchisi talqinida yangicha mazmun kasb etadi.

“Donishmand Sizif” romani janr jihatidan ham, uslub jihatidan yangi bo‘lib zamonaviy o‘zbek romanchiligini bir pog‘ona yuqori ko‘tardi, desak, adashmaymiz. O‘zining badiiy muvaffaqiyati bilan ko‘plab adabiyotshunoslarni, tadqiqotchilarni, kitobxonlarni o‘ziga jalb etdi. Roman xususida bahs-munozaralar yuzaga keldi, ilmiy xulosalar bildirildi. Roman o‘z badiiy jozibasi bilan zamonaviy o‘zbek romanlari ichida “yarq” etib ko‘zga tashlandi. Shu sababli ham munosabatlar har xil bo‘ldi.

Nafaqat o‘zbek romannavislari badiiy ahamiyatga molik asarlar yaratdi, o‘zbek romanshunos olimlari ham roman janri bo‘yicha tadqiqotlarni turli adabiyotshunoslik muammolaridan kelib chiqib olib bordilar. Mustaqillik davri adabiyotshunosligida yaratilgan A.Rahimovning «O‘zbek romani poetikasi» (1993), D.To‘rayevning «Hozirgi o‘zbek romanlarda tafakkur va mahorat muammosi (1960-80 yillar)» (1994), H.Karimovning «Hozirgi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi: 1970-80 yillar» (1994), U. Qosimovning “Adabiy-estetik tafakkur tadriji: ananaviylik, vorisiylik, o‘ziga xoslik (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod ijodi misolida)” kabi doktorlik dissertatsiyalari hamda A.Xolmurodovning «Odil Yoqubov romanlarida psixologizm» (1991), I.Samandarovning «O‘zbek tarixiy romanlarida insoniy munosabatlarning badiiy tasviri» (M.Do‘st, G‘.Xotamov, O.Otaxon asarlari asosida, 1994), X.Lutfiddinovaning «Yozuvchining estetik ideali va ayollar obrazi» (1994), O.Iskandarovaning “Diyonat” va “Qiyomat” romanlarida insoniy munosabatlarning badiiy tasviri» (1995), M.Olimovning «Hozirgi o‘zbek adabiyotida pafos muammosi» (1995), A.Boboniyozovning

“Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida tasviriy vositalar va til badiiyati” (1995), Z.Mahmudovaning «Abdulla Qodiriy «O‘tkan kunlar» romanining milliy o‘ziga xosligi» (1996), T. Qurbonovning «Odil Yoqubovning portret yaratish mahorati» (1997), U.Musaevaning «Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarining syujet va konflikt xususiyatlari» (1997), Z.Jalmatovaning “Urbanistik asarlardagi mushtaraklik va o‘ziga xoslik (P.Qodirovning «Olmos kamar” asarining qiyosiy tahlili misolida)” (1999), A.Qahramonovning «Mehrobdan chayon» romani poetikasi” (2000), Z.Rahimovning «Odil Yoqubovning «Ko‘hna dunyo” romani poetikasi” (2000), N.Soatovaning «Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida epik tasvir ananalari» (2001), Sh.Isayevaning «O‘zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari» (2001), X.Hamroqulovaning «Abdulla Qahhorning «Sarob» romanida shaxs fojiasi talqini» (2004) kabi nomzodlik dissertatsiyalarida istiqlolgacha bo‘lgan davrda yaratilgan asarlar bilan bog‘liq muayyan masalalar o‘rganilganilgan.

Z.Pardayevaning «Hozirgi o‘zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillari» (2003) [12] mavzuidagi doktorlik ishi bevosita istiqloldan so‘ng yaratilgan romanlar tadqiqiga qaratilgan. Bu tadqiqotda dissertant o‘zbek adabiyotida romanga xos badiiy tafakkur tarzining mavjudligi, unga xos uslubiy ifodaning namoyon bo‘lishi, asar poetikasidagi g‘oyaviylik va badiiylik, syujet va kompozitsiya, stilistik shakllanish kabi masalalarni jahon nasri bilan qiyosiy tadqiq etgan. Shuningdek, tadqiqotchi o‘z dissertatsiyasida o‘zbek romanchiligi taraqqiyotining yetakchi tamoyillarini belgilab, modernizmga nisbatan yangi munosabatning shakllanishini kuzatar ekan, hozirgi o‘zbek romanlari tahlilida Mixail Baxtinning roman nazariyasi va Xose Ortega-i Gassetning modernistik roman nazariyasiga suyangan holda jahon romanchilik maktabi tajribalariga murojaat etadi, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani poetikasi keng tadqiq etiladi.

Y.Solijonovning «XX asrning 80-90 - yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi» mavzuidagi doktorlik ishida mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab yaratilgan asarlar tahlili misolida badiiy ijodda prozaik nutq tiplarining o‘rni, badiiy asardagi bayon usuli va avtor nutqining mavqei, personaj nutqining o‘rni, monolog, dialog, ichki nutq, nutq polifoniyasi hamda o‘zbek adabiyotiga polifonik romanning kirib kelishi kabi ilmiy-nazariy masalalar tadqiq etilgan. [17]

M.Pirnazarovaning «Hozirgi o‘zbek romanlarida uslubiy izlanishlar (Omon Muxtor, X.Do‘stmuhammad, U.Hamdam romanlari misolida)» deb nomlangan nomzodlik ishida yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlarning istiqloldan so‘nggi davrda elon qilingan asarlaridagi uslubiy izlanishlarning mohiyatini epik nasrdagi milliy adabiy ananalardan, mifologik tasavvurlarning o‘ziga xos talqinlarini esa diniy-axloqiy qarashlar zamiridan izlashga uringan. ayni paytda yangilanayotgan uslubni roman ichki dinamikasi bilan bog‘lab o‘rganishga harakat qilgan. [14]

Adabiyotshunos Sh.Doniyorovaning “Istiqlol davri o‘zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi” mavzusida bajarilgan doktorlik dissertatsiyasida istiqlol arafasi va mustaqillik davrida yaratilgan P.Qodirovning “Ona lochin vidosi”, O‘.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Sh.Xolmirzayevning «Dinozavr», O.Muxtorning «Tepalikdagi xaroba», «Ishq ahli», «Aflotun», T.Murodning «Otamdan qolgan dalalar», «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi», Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat”, X.Do‘stmuhammadning «Bozor», U.Hamdamning «Muvozanat», «Isyon va itoat» hamda boshqa milliy ruh va qahramon masalasi yorqin aks etgan romanlar tadqiq etilgan. [5]

Adabiyotshunos Muhabbat Sharafutdinovaning “XX asr o‘zbek romanchiligi hikoya tarzining o‘ziga xos xususiyatlari (jahon adabiyoti kontekstida)” mavzusidagi tadqiqoti **-** roman janri poetikasida muhim o‘rin tutuvchi ayni shu muammoni - milliy roman strukturasidagi yangilanish jarayonini jahon adabiyoti kontekstida - jahon romanchiligining nodir namunalari bilan qiyosan tahlil etish yo‘lidan boradi. [17] Adabiyotshunos Umarali Normatov ushbu tadqiqotni “XX asrning mohir romanshunoslari M.Baxtin, X.Ortega-i-Gasset qarashlariga tayangan holda XX asr o‘zbek romani hikoya tarzini jahon adabiyoti kontekstida tadqiq etishga qaratilgan ushbu tadqiqot kishida iftixor tuyg‘usini uyg‘otdi; XX asr o‘zbek adabiyotida sho‘ro davri istibdodi-tazyiqlariga qaramay, yangi davr jahon adabiyoti nodir namunalari bilan bemalol bo‘ylasha oladigan asarlar yaratganligini, milliy adabiyotimiz shunchaki “ko‘pmillatli sovet adabiyotining tarkibiy qismi” emas, jahon yangi adabiyotining uzviy qismi tarzida rivojlanganligini yana bir karra tasdiqlaydi...” , [2] - deb yuqori baholaydi.

Mamlakatimizning taraqqiy etgan davlatlar hamjamiyatiga qo‘shilishi muloqot imkoniyatlarini kengaytirdi, tillarga bo‘lgan etibor badiiy asarlarni asliyatda o‘qishga, asliyatdan o‘zbek tiliga o‘girishga olib keldi, yetuk adiblar qo‘llagan uslublar o‘zbek yozuvchilari uchun badiiy mahorat maktabini o‘tayotgan bo‘lsa, jahon adabiyotshunosligida qo‘llanilayotgan ilg‘or tahlil metodlarini o‘zlashtirish adabiyot sohasida olib boriladigan tadqiqotlarni ham faollashtirdi, ilm-fan yo‘nalishlarini boyitdi.

Badiiy adabiyot, xususan romanchilik bugungi globallashuv jarayonida insoniyat madaniyatini yuksaltirish, intellektual salohiyatini oshirish, yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Yangicha uslub va yondashuvlar, adabiy-estetik tamoyillarning izchil takomillashuvi natijasida badiiy tafakkurning tadrijiy rivoji bilan bog‘liq ilmiy konsepsiyalar adabiyotshunoslik sohalari taraqqiyotini taminlashning ahamiyatga ega omillaridan sanaladiki, romanchilik muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ilmiy hamda amaliy xulosalariga asoslanish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mustaqillik davri o‘zbek romanlaridagi uslubiy yangilanishlarning yuzaga kelishida omil bo‘lgan manbalar - adabiy-badiiy an’analar va jahon so‘z san’atining ilg‘or izlanishlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan milliy ruhni talqin etishda o‘zbek romanchiligining yangilanish bosqichi, Sharq va G‘arb adabiy an’analarining badiiy sintezini o‘rganish asosida yaratilgan Shohsanam Davronovaning “Istiqlol davri o‘zbek romanlarida Sharq va G‘arb an’analarining badiiy sintezi” mavzusida fan doktori dissertatsiyasi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda Mustaqillik davrida yaratilgan Asad Dilmurodning “Fano dashtidagi qush”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor”, Omon Muxtorning “Ffu”, “Aflotun”, Abbos Saidning “Ko‘chada qolgan odam”, Isajon Sultonning “Ozod”, “Boqiy darbadar”, Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi”, Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, “Namatak”, Ahmad Azamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar”, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” kabi romanlarda zohir bo‘lgan anana va badiiy sintezning roman poetikasidagi yangicha tafakkur tarzi, ifoda yo‘sinlari, uslubiy o‘ziga xos xususiyatlari keng va atroflicha o‘rganilgan, tadqiq jarayonida analitik tahlil, qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, germenevtik, psixologik, sotsiologik metodlardan foydalanilgan. Dissertant tomonidan U. Hamdamning “Sabo va Samandar”romani A.Navoiyning “Layli va Majnun”i bilan, “Isyon va itoat” romani Paolo Koeloning “Alkimyogar”i bilan, I.Sultonning “Boqiy darbadari” Ч. Aytmatovning “Oxir zamon nishonalari” bilan muvaffaqiyatli qiyoslangan.

Dissertant ishda Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida kechayotgan, e’tiborga molik Sharq va G‘arb badiiy sintez hodisalarini imkon darajasida qamrab olishga harakat qilgan. Ayniqsa, klassik adabiyot tasiri, A.Navoiy epik ijodining romannavislar tomonidan o‘zlashtirilishi yangi o‘zbek romanlarida yozuvchi badiiy mahorati masalalari ijobiy hal qilinishiga omil bo‘lgan. Shuningdek, o‘zbek romanchiligi uslubiy rang-barangligiga ta’sir qilgan g‘arb, Lotin Amerikasi, rus yozuvchilarining ijodi tarixiy-qiyosiy tahlilga tortilgan, tarjima asarlar maydonining kengayishi o‘zbek romannavislari ijod imkoniyatlarini kengaytirgani, “Zamonaviy adabiy jarayonda kechayotgan jahon adabiyoti yutuqlaridan o‘zlashtirishga intilish harakatlariga ham ana shu manoda ijobiy jarayon sifatida qaramoq joiz. Natijada adabiy jarayonda xilma-xil qarashlar, mazmunan boy va shaklan turfa ifoda va uslubiy yangilanishlar yuzaga kelmoqda. Чunki boshqa xalqlar adabiy merosi, madaniyati bilan batafsil tanishgan, o‘rgangan ijodkorning o‘z xalqi, zamondoshlari haqidagi fikr va qarashlari takomillashadi, yangi uslubiy izlanishlarni kashf etish imkoniyatlari kengayishi” etirof etilgan. [5,147]

Hozirgi adabiy jarayonda kechayotgan janr talablari va badiiy mezonlar o‘zgarishiga I.Sultonning “Boqiy darbadar” romanida “Mangu darbadarning qaytishi” premyerasi, N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romanida sud jarayonining teatrda tashkil etilishi, E.Azamning “Shovqin” romani qahramoni kinodramaturg Farhod Ramazonning Sharq adabiyotida mashhur Shayx Sanon qissasi syujeti asosida yaratgan “Ishq isyoni” asarini yaratishi kabilarga tadqiqotchi romanlar syujetiga kiritma epizod sifatida teatr tomoshalarining olib kirilganligi deb aniqlik kiritadi. [5,159]

Bu badiiy unsur roman janrining teatrlashuviga misol bo‘ladi. Xuddi shunday jarayonni M.Bulgakov, V.Nabokov, B.Pasternak asarlari reprezentatsiyasini hozirgi zamon rusiyzabon adabiyotda kuzatish mumkin. Jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlarning hozirgi o‘zbek romanlarida ham kechishi, tabiiyki, ijobiy hodisa.

Adabiyotshunoslikdagi roman poetikasi muammolari bilan bogdik fikr-muloxazalar, ilmiy-nazariy umumlashmalar Mustaqillik davri o‘zbek romanlaridagi poetik yangilanishlarni tadqiq etishga bag‘ishlangan I.Yakubovning “Mustaqillik davri o‘zbek romanlarining poetikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. [20]

Zero, jahon adabiyotshunosligida roman poetikasi masalalari janr yangilangani sari yangicha xususiyatlarni zohir qila borar ekan, uni adabiy jarayon kontekstida o‘rganish, tadqiq etish, umumlashtiruvchi ilmiy-nazariy xulosalar chikarish ehtiyoji mavjud bo‘lib qola beradi. XX-XXI asrlar oralig‘i o‘zbek romanchiligi badiiy kashfiyotlari, adabiy-estetik maktablar yutuklari milliy romanlar poetikasidagi badiiy konsepsiyalar, talqin uslublari, syujet-kompozitsiya, personajlar tizimi, shakl-uslubdagi uziga xosliklar ularning ilmiy-nazariy asoslariga bo‘lgan talablarni ham o‘zgartirdi.

Mustaqillik davri romanchiligini adabiyotshunos I.Yakubov “Adabiy hodisalarni sabab-natija munosabatlariga tayanib izohlash ananasi yoniga oqibatdan sababga qarab borish tamoyili qo‘shilib, poetik tasvirda ramziy- majoziylik salmog‘i ortib, metaforiklik chuqurlashdi; tasvir predmeti va badiiylik moduslari yangilandi; badiiy ifodada kinoyaviylik, tragiklik, satiriklik, dramatiklik moduslariga etibor kuchaydi”, [20, 14] - deb tariflaydi. Adabiyotshunos tadqiqotda Mustaqillik davrida o‘zbek milliy romanining “roman-pentalogiya, roman-tetralogiya, rivoyat- roman, mistik-roman; ilmiy-fantastik roman, marifiy-biografik roman, esse-roman, roman-istexzo, roman-muhokama, roman-publitsistika, “mini-roman” janrlari yaratilganini ilmiy asoslab beradi.

Mustaqillik davri uzbek romani poetikasi bilan boglik muammolarni ochib berish, milliy roman poetikasida namoyon bulayotgan yangicha tafakkur tarzi, ijodiy konsepsiyalar, ifoda yusinlari, syujet-kompozitsiya, personajlar tizimi, shakl-uslubdagi uziga xosliklarni aniklash maqsadida tadqiqotchi XX-XXI asrlar oralig‘i o‘zbek romanchiligi poetikasi yangilanishiga sezilarli tasir etgan «Tangri kudug‘i» (Erkin Samandar), «Чo‘lpon» (N.Karimov), «Donishmand Sizif» (Xurshid Do‘stmuhammad), «Tutash olamlar» (X.Shayxov), «Ro‘zi Чorievning so‘nggi vasiyati» (N.Normatov), «Kallaxonalik yigitcha», «Musavvir» (Alisher Mirzo), «Go‘ro‘g‘li» (Nazar Eshonqul), «Namatak» (Ulug‘bek Xamdam), «Ozod» (Isajon Sulton) romanlarini tadqiq etadi, ularning poetikasini o‘zbek va jaxon adabiyoti romanlari bilan qiyosiy tahlil va talqin etadi. Tadqiqot jarayonida kompleks taxlil, kontekstual taxlilning sotsiologik, tarixiy-madaniy, tarixiy-kiyosiy, kiyosiy-tipologik yondashuvlari, shuningdek, komparativistik, biografik, psixologik, germenevtik, gipotetik metodlar va immanent taxlilning struktural, stilistik metod turlarini qo‘llash romanlar poetikasini yoritishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. [20]

Ikki asr oralig‘i o‘zbek romani taraqqiyotiga alohida ahamiyat molik qilgan romannavislarni tadqiqotchi shartli ravishda ikki guruhga - poetik tafakkuri taqlid bosqichi bilan bilvosita alokador adiblar va poetik tafakkurida sof germenevtik munosabat yetakchilik kiluvchi adiblarga ajratadi. Ishda aynan ikkinchi guruxga mansub adiblargina milliy romanning yangi ichki shakllari, betakror badiiy ifoda yo‘sinlari yuzaga kelishiga munosib ulush ko‘shgani tadqiq etiladi.

Tadqiqotchi ishga jalb etilgan “romanlarda umumturkiy va jahon adabiyotida saykal topgan kadimiy mavzularga murojaat kilish kuchayganini, aslida sintetizm tabiatan muayyan madaniy-tarixiy, badiiy-estetik kanonlar doirasida izohlanuvchi xodisa emas, balki mohiyat etibori bilan ulkan kamrovli, umuminsoniy poetik tafakkur maxsulidir” [20, 17] degan xulosaga keladi.

XX-XXI asrlar oralig‘ida yaratilgan o‘zbek romanlari semantik-struktur katlamida esselashuv mikyosi kengayib, poetik ifoda imkoniyatlari ortdi. Shu bilan birga roman janriga Lotin Amerikasi, g‘arb va rus romanchiligiga xos bo‘lgan non-fikshn va esse janrlarining xususiyatlari kirib keldi-ki, bu jarayon G‘arbu Sharq adabiy-estetik an’analarining sintezlashuviga ijobiy tasir qilmay qolmadi.

Roman janr sifatida taraqqiy etib borar ekan, demakki undagi barcha unsurlar, yani komponentlar o‘zgarib turadi. Fikr tug‘ilishi tabiiy: yangi yaratilgan roman o‘zidan oldingi yaratilgan romanlardan tadrijan farqlanadimi? Har bir romannavis badiiy tafakkurida tug‘ilgan g‘oya yetilib konseptuallik maqomiga erishgan muammoni yozuvchining badiiy mahorat imkoniyatlari ochib beradi. Asar badiiy takomilga erishmaguncha yozuvchi konseptual g‘oyasi ochilmaydi. Yangi yaratilgan roman haqiqatdan ham badiiy mukammallikda farqlanadimi? Tanlangan mavzu, qo‘llanilgan badiiy imkoniyatlar yozuvchi niyatini yuzaga chiqarganmi, eng muhimi o‘z kitobxonini topdimi? Shu kabi savollar har bir romanga nisbatan tug‘ilishi tabiiy. Agar roman Islom dini va uning peshvolariga bag‘ishlangan bo‘lsa-chi? “Men Islom dini, Quroni karimni, Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sallollohi vassallam janob oliylari hayoti va tarixini, Islom dini peshvolari - shayx valiylar tutumlarini yaxshi bilaman”, deydigan vallomat ham nafaqat ijod sirlaridan voqif bo‘lishi, shu mavzuni yoritishga ham tafakkuran, ham ruhan, ham aqlan tayyor bo‘lishi lozim. Shu ma’noda tadqiqotchi Muborak Omanovaning “Istiqlol davri o‘zbek romanlarida shayx valiylar obrazining badiiy talqinlari” mavzusida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi badiiy ijodning mana shunday murakkab jarayonlarini ilmiy tadqiq qilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. [] Ushbu dissertatsiya Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida shayx valiylar obrazining badiiy talqinlarini tadqiq etish yo‘nalishida yaratilgan durdona asarlarni adabiyotshunoslik metodlari asosida konseptual o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar sirasiga kiradi va dolzarb nazariy muammoga bag‘ishlanganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Mustakillik davri o‘zbek romanshunosligida dunyoni obrazli badiiy qayta gavdalantirishning Farbda taraqqiy topgan tamoyillarini Sharq-islom adabiy-estetik ananalari bilan uyg‘unlashtirish amaliyoti yuzaga kelgani, nosirlarimizning Quroni karim va Hadisi sharif haqiqatlari,

tasavvuf va Islom falsafasi, mutasavvif allomalarning ilmiy-adabiy merosi, murakkab shaxsiyati hamda muhitini keng o‘rgangani, Allohni anglash yo‘lida badiiy baquvvat nasriy asarlar yaratilgani xalqimizning manaviy-diniy ildizlari baquvvat ekanligini ham anglatadi, Asad Dilmurodning “Pahlavon Muhammad”, Sadulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy”, Omon Muxtorning “Navoiy va rassom Abulxayr”, To‘lqin Hayitning “Buroq vodiysi yoxud Bahouddin Naqshband qissasi”, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” tarixiy biografik romanlari bunga misol bo‘la oladi. Sharqshunos olim Ye.E.Bertelsning “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin”, - degan fikrlari ham yozuvchi, ham tadqiqotchi oldiga shunday masuliyatni qo‘yadi.

Tadqiqot mavzuga oid Quroni karim, hadisi sharif va tasavvuf adabiyotiga oid ilmiy-nazariy manbalar, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul, Kamol Eraslon, Nasafiy (Yevgeniy Yefimovich Berezikov), Zuhra Mamadaliyeva, Uzoq Jo‘raqulov, O‘rinboyev B., Aziz Qayumov, Boturxon Valixo‘jayev, Sultonmurod Olim, Homidjon Homidiy, Usmon Qobilov, Hamidulla Boltaboyev, Aziza Bektasheva, Nodirxon Hasan, Hamidxon Islomiy asarlarida yoritilgan ilmiy fikr va xulosalarga tayanib amalga oshirilgani bilan ham ahamiyatlidir.

XULOSA

Roman jamiyat badiiy-estetik darajasining inikosi ekanligini nazarda tutsak, mustaqillik davrida yaratilgan romanlar globallashuv sharoitida o‘zligini izlayotgan, “yashab qolish” qonunlari bilan kurashayotgan insonning badiiy shakli shamoyilidir. “Yashab qolish sharti” qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bugungi romaniy qahramon intilgan haqiqat – o‘ziga, o‘zligiga sodiq qolish. Qahramon boshidan kechirayotgan siru sinoatlar, ruhiy kechinmalar hayotiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida yozuvchi badiiy tafakkurida chig‘iriqdan o‘tar ekan, hayotiy mezonlar va badiiylik mezonlari bir-biriga mos tushsagina romaniy tafakkurni yuzaga chiqaradi. Biz yuqorida bir maqola imkoniyatidan kelib chiqib saralab ko‘rganimiz o‘zbek romanlari va ular tegrasida kechgan bahs-munozaralar, olib borilgan tadqiqotlar asosan saralangan asarlar yuzasidan amalga oshirilgan. Bir-birini takrorlamagan romanlar, ularni jahon adabiyotshunosligi metodlari va yutuqlari, adabiyotshunoslikning turli masalalaridan kelib chiqib tadqiq etilgan tadqiqotlar Mustaqillik davri romanchiligi tadrijini, romanlar poetikasidagi yangilanishlarni, o‘zbek badiiy va ilmiy tafakkuri darajasini ham bildiradi. Ha, haqiqatdan ham milliy badiiy-estetik tafakkurimizning ildizlari baquvvat, vorisiyligimiz davomiy. Dunyo har qancha turlanib tuslanmasi milliy qadriyatlarimiz o‘zbek romanlari bosh mavzulari bo‘lib qola berdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baxtin M. Estetika slovesnogo tvorchestva. M.: Iskusstvo, 1979. - 423 s. M.: Iskusstvo, 1979. - 423 s. https://elar.urfu.ru/handle/10995/49 (Bakhtin M. Aesthetics of verbal creativity. Moscow: Art, 1979. - 423 p. Moscow: Art, 1979. - 423 p. https://elar.urfu.ru/handle/10995/49)

2. Bo‘ronova J. Zamonaviy rusiyzabon va o‘zbek nasrida badiiy mifologizm. Fil. fan. buyicha fal dokt. dis.. – Toshekent, 2022. 121 b. (Boronova J. Artistic mythologism in modern Russian-speaking and Uzbek prose. Phil. science. fortune telling doctor on this. dis.. – Toshekent, 2022. 121 p.)

3. Vladimirova N.V. Razvitie uzbekskoy prozы XX veka i voprosы xudojestvennogo perevoda. – Tashkent: Fan, 2011. – 336 s. **(**Vladimirova N.V. Development of Uzbek Prose of the 20th Century and Issues of Literary Translation. - Tashkent: Nauka, 2011. - 336 p.)

4. Garipova G.T. .T. Xudojestvennaya modelь bытiya v literature XX veka / Otv. red.: d.f.n., professor Davshan A. N. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012. – 352 s. (Garipova G. T. .So Xudojestvennaya modelь bытiya in the literature of the XX, the age / Otv. red.: d. f. n., Professor Davshan A. N.-T.: MUMTOZ SO‘Z, 2012. , 352 s.) **()**Garipova G.T. .T. Artistic model of life in the literature of the XX century / Ed. Publisher: Doctor of Philological Sciences, Professor Davshan A.N. - T .: MUMTOZ S’Z, 2012. - 352 p. (Garipova G.T. T.o. Artistic model of being in the literature of the twentieth century / Editorial ed.: Doctor of Philological Sciences, Prof. Davshan A.N.-T.: MUMTOZ SOZ, 2012. , 352 p.)

5. Davronova Sh.G‘. “Istiqlol davri o‘zbek romanlarida Sharq va G‘arb ananalarining badiiy sintezi Filol. fanlari doktori ... diss. – Samarqand. -2019. **(**Davronova Sh.G. "Filol, the artistic synthesis of Eastern and Western traditions in Uzbek novels of the period of independence. doctor of sciences ... diss. - Samarkand. -2019.**)**

6. Doniyarova Sh.X. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi. Filol. fanlari doktori ... diss. – T., 2012. – S. 258. **(**Doniyarova Sh.Kh. The problem of national spirit and hero in Uzbek novels of the independence period. Philol. doctor of sciences ... diss. - T., 2012. - P. 258.**)**

7. Dulova N. Sudьba janra v literaturnom protsesse. Izd-vo Irkutskogo universiteta, 1996. – *96* s**. (**Dulova N. The fate of January in the literary process. Publishing House of Irkutsk University, 1996. - 96 p.**)**

8. Dustmuxammad X. Donishmand Sizif. Roman. – Toshkent: Uzbekiston NMIU, 2016. – 360 b. (Dustmuhammad H. Wise Sisyphus. Roman. - Tashkent: NMIU of Uzbekistan, 2016. - 360 p.)

9. Muxtor O. To‘rt tomon qibla: Uch romandan iborat Sharq daftari: (Trilogiya). – T.: Sharq NMAK, 2000. – 432 b. (Mukhtar O. Qibla to four sides: Eastern Notebook consisting of three novels: (Trilogy). - T.: Sharq NMAK, 2000. - 432 p.)

10. Normatov Umarali. Yangi davr olimi: U qanday bo‘lishi kerak?

11. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/umarali-normatov-yangi-davr-olimi-u-an/ **(**Normatov Umarali. Scientist of the New Era: What should he be like? https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/umarali-normatov-yangi-davr-olimi-u-an/**)**

12. Omanova M. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida shayx valiylar obrazining badiiy talqinlari. filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.(PhD) dis. – Jizzax., 2022. – 156 b. (Omanova M. Artistic interpretations of the image of Sheikh Waliy in Uzbek novels of the period of independence. Doctor of Philosophy in Philology. (PhD) dis. - Jizzakh., 2022. - 156 p.)

13. Pardaeva Z.J. Hozirgi o‘zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillari. Filol. fanlari doktori ... diss. –T., 2003. – 296 s**. (**Pardaeva Z.J. Development principles of modern Uzbek novels. Philol. doctor of sciences ... diss. - T., 2003. - 296 p.**)**

14. Pardayeva Z. O‘zbek romani poetikasi. – Toshkent: “Meros”, 2003, 104-b. (Pardaeva Z. Poetics of the Uzbek novel. - Tashkent: "Heritage", 2003, p. 104.)

15. Pirnazarova M.M. Hozirgi o‘zbek romanlarida uslubiy izlanishlar (O.Muxtor, X.Do‘stmuhammad, U.Hamdam, T.Rustam romanlari misolida). Filol. fanlari nomz. ... diss. – T., 2006. – B. 160 s. **(**Pirnazarova M.M. Methodological research in contemporary Uzbek novels (for example, novels by O. Mukhtar, H. Dostmuhammad, U. Hamdam, T. Rustam). Philol. subjects nomz. ... diss. - T., 2006. - B. 160 p.**)**

16. Sattorova G.Yu. 90-yillar o‘zbek romanchiligida milliy xarakter muammosi (G‘.Hotam, X.Do‘stmuhammad, N.Eshonqul hikoyalari misolida). Filol. fanlari nomz. ... diss. avtoref. – T., 2002. – 24 s. **(**Sattorova G. Yu. The problem of national character in Uzbek novels of the 1990s (in the example of the stories of G. Hotam, H. Dostmuhammad, N. Eshonqul). Philol. subjects nomz. ... diss. autoref. - T., 2002. - 24 p.**)**

17. Solijonov Y. Kamyu, absurd, Sizif va o‘zbek adabiyoti // Tafakkur. – T., 2019. 1-son. – B. 78-83. **(**Solijonov Y. Camus, absurd, Sisyphus and Uzbek literature // Thought. - T., 2019. Issue 1. - B. 78-83.**)**

18. Sharafutdinova M.O. Osobennosti povestvovatelьnoy strukturы uzbekskogo romana XX veka v kontekste mirovoy kulьturы. Diss. ... doktora filol. nauk. – T., – 2010. – 276 c. (Sharafutdinova M.O. Features of the narrative structure of the Uzbek novel of the twentieth century in the context of world culture. Diss. ... PhD. Philol. Science - T., - 2010. - 276 p.)

19. Qosimov U. “Adabiy-estetik tafakkur tadriji: ananaviylik, vorisiylik, o‘ziga xoslik (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog‘ay Murod ijodi misolida)”. Fil. fan. buyicha fan dokt. (DSc) ilmiy dar. olish uchun taq. et. dis. Avtoref. – T., 2020. – 46 b. **(**Kasimov U. "Literary-aesthetic thought process: traditionality, inheritance, originality (in the case of the work of Abdullah Qadiri, Abdulla Qakhor and Togay Murad)". Phil. science. doctor of science on this. (DSc) degree. to get eat dis. Autoref. - T., 2020. - 46 p.)

20. Yakubov I.A. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Fil. fan. dokt. (DSc) dis. avtoref. – T., 2018. – 56 b. (Yakubov I.A. Poetics of Uzbek novels of the period of independence. Phil. science. dr. (DSc) Diss. autoref. - T., 2018. - 56 p.)